DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-06-07-15 Pages: 139-151

Oriental Journal of Philology

ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING INTERCULTURAL COMPETENCE OF UNIVERSITY STUDENTS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION (BASED ON THE OECD GLOBAL COMPETENCE FRAMEWORK)

Shohsanam Furqatovna Shodiyeva
Independent researcher, Higher Education Development Research Center under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation
Senior Lecturer, Department of Pedagogy, Tashkent University of Applied Sciences
E-mail: shoksanamshodieva97@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, intercultural competence, global competence, OECD, PISA, university students, higher education, pedagogical model, assessment criteria.

Received: 05.11.2026
Accepted: 06.11.2026
Published: 07.11.2026

Abstract: The article examines the pedagogical opportunities for developing intercultural competence of university students on the basis of the global competence framework developed by the OECD. The study is theoretical and analytical: it combines content analysis of OECD documents, comparative analysis of the models of M. Byram, D. Deardorff and M. Bennett and of the Council of Europe Reference Framework, and pedagogical modelling. The four dimensions of the OECD framework and its building blocks of knowledge, skills, attitudes and values are matched with the cognitive, affective-value, communicative, behavioural and reflective components of intercultural competence. On this basis, the article proposes an eight-stage development model adapted to higher education, a set of pedagogical conditions, and assessment criteria with indicators and instruments. Since the framework was designed for 15-year-old school students, the author argues that its transfer to universities must take into account students' professional field and reflective experience. The proposed model is to be tested in a pedagogical experiment at the next stage of the research.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABA YOSHLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI (OECD GLOBAL KOMPETENTLIK KONSEPSIYASI ASOSIDA)

Shohsanam Furqatovna Shodiyeva
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi mustaqil izlanuvchisi
Toshkent amaliy fanlar universiteti "Pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi
E-mail: shoksanamshodieva97@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, madaniyatlararo kompetentlik, global kompetentlik, OECD, PISA, talabalar, oliy ta'lim, pedagogik model, baholash mezonlari.

Annotatsiya: Maqolada OECD tomonidan ishlab chiqilgan global kompetentlik konsepsiyasi asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarida madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega: OECD hujjatlarining kontent-tahlili, M. Byram, D. Deardorff, M. Bennett modellari va Yevropa Kengashi ma'lumotnoma doirasining qiyosiy tahlili hamda pedagogik modellashtirish metodlari qo'llangan. OECD konsepsiyasining to'rt o'lchovi va bilim, ko'nikma, munosabat, qadriyat bloklari madaniyatlararo kompetentlikning kognitiv, affektiv-qadriyatli, kommunikativ, xulq-atvor va refleksiv komponentlari bilan solishtirilgan. Shu asosda oliy ta'lim sharoitiga moslashtirilgan sakkiz bosqichli rivojlantirish modeli, pedagogik shart-sharoitlar, baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va vositalari taklif etilgan. Konsepsiya 15 yoshli o'quvchilar uchun yaratilgani sababli uni oliy ta'limga ko'chirishda talabalarning kasbiy yo'nalishi va refleksiv tajribasini hisobga olish zarurligi asoslangan. Maqola natijalaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari fan dasturlarini ishlab chiqishda foydalanishi mumkin. Taklif etilgan model tadqiqotning keyingi bosqichida pedagogik tajribada sinovdan o'tkaziladi.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ (НА ОСНОВЕ КОНЦЕПЦИИ ГЛОБАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ОЭСР)

Шохсанам Фуркатовна Шодиева
Независимый соискатель Центра исследований развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций

Старший преподаватель кафедры «Педагогика» Ташкентского университета прикладных наук
E-mail: shoksanamshodieva97@gmail.com
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, межкультурная компетентность, глобальная компетентность, ОЭСР, PISA, студенты, высшее образование, педагогическая модель, критерии оценки.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические возможности развития межкультурной компетентности студентов вузов на основе концепции глобальной компетентности, разработанной Организацией экономического сотрудничества и развития (ОЭСР). Исследование носит теоретико-аналитический характер: использованы контент-анализ документов ОЭСР, сравнительный анализ моделей М. Байрама, Д. Дирдорф, М. Беннета и Рамочной концепции Совета Европы, а также педагогическое моделирование. Четыре измерения концепции ОЭСР и её блоки (знания, умения, отношения, ценности) сопоставлены с когнитивным, аффективно-ценностным, коммуникативным, поведенческим и рефлексивным компонентами межкультурной компетентности. На этой основе предложены восьмиэтапная модель развития, адаптированная к условиям высшего образования, педагогические условия, а также критерии, показатели и инструменты оценки. Поскольку концепция создавалась для 15-летних школьников, обосновано, что при её переносе в вуз необходимо учитывать профессиональную направленность и рефлексивный опыт студентов. Предложенная модель будет проверена в ходе педагогического эксперимента на следующем этапе исследования.

Kirish. Globallashuv ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo‘ymoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangani, xalqaro akademik mobillik kengaygani va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalar ko‘paygani sababli talabalar turli madaniy muhit vakillari bilan bevosita yoki onlayn muloqotga tez-tez kirishmoqda. Bunday sharoitda oliy ta’lim mutaxassisga kasbiy bilim berish bilan cheklana olmaydi. Bitiruvchi madaniy jihatdan xilma-xil jamoada ishlay olishi, boshqa qarashlarni tushunishi va o‘z fikrini hurmat doirasida asoslay olishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy

ta’limni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish vazifalari belgilangan [1]. Bu vazifalarni bajarish talabalarning madaniyatlararo tayyorgarligini ham talab qiladi.

Xalqaro ta’lim siyosatida bu masala “global kompetentlik” tushunchasi orqali ifodalanmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) 2018-yilda e’lon qilgan PISA global kompetentlik konsepsiyasida global kompetentlik ko‘p o‘lchovli qobiliyat sifatida ta’riflanadi. Unga ko‘ra, global kompetent shaxs mahalliy, global va madaniyatlararo masalalarni o‘rgana oladi, boshqa nuqtayi nazar va dunyoqarashlarni tushunadi, turli madaniyat vakillari bilan ochiq, o‘rinli va samarali muloqot qiladi, umumiy farovonlik va barqaror rivojlanish yo‘lida mas’uliyat bilan harakat qiladi [2]. Konsepsiya PISA 2018 tadqiqotining nazariy-tahliliy asosiga kiritilgan va 15 yoshli o‘quvchilarni baholash uchun ishlab chiqilgan [3].

Bu yondashuv madaniyatlararo kompetentlikni shaxsning bilim, munosabat, qadriyat va xulq-atvoridan tarkib topgan yaxlit tizim sifatida ko‘rishga imkon beradi. Boshqa madaniyat haqida ma’lumotga ega bo‘lishning o‘zi muloqot muvaffaqiyatini kafolatlamaydi. Shaxs o‘z madaniy pozitsiyasini anglashi, stereotiplarni tanqidiy baholashi va vaziyatga qarab xulqini moslashtira olishi ham kerak. Biroq OECD konsepsiyasi maktab o‘quvchilari uchun yaratilgan. Uni oliy ta’limga ko‘chirishda talabalarning yoshi, kasbiy yo‘nalishi va o‘quv jarayonining tuzilishi hisobga olinmasa, konsepsiya umumiy deklaratsiya bo‘lib qoladi. Tadqiqot muammosi shundan iborat.

Tadqiqotning maqsadi – OECD global kompetentlik konsepsiyasi asosida talaba yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularni oliy ta’lim sharoitiga moslashtirilgan model ko‘rinishida ifodalash. Maqsadga erishish uchun quyidagi savollar qo‘yildi: 1) OECD konsepsiyasining tarkibiy qismlari madaniyatlararo kompetentlikning qaysi komponentlariga mos keladi; 2) oliy ta’lim jarayonida qaysi pedagogik vositalar bu komponentlarni rivojlantiradi; 3) erishilgan natijani qanday mezon va vositalar bilan baholash mumkin.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, OECD konsepsiyasining to‘rt o‘lchovi madaniyatlararo kompetentlikning besh komponenti bilan bevosita bog‘landi, konsepsiyada alohida ajratilmagan refleksiv komponent oliy ta’lim talabasi uchun qo‘shildi, sakkiz bosqichli rivojlantirish modeli va har bir komponent uchun baholash vositalari taklif qilindi.

Adabiyotlar sharhi. Madaniyatlararo kompetentlik pedagogika, psixologiya, kommunikatsiya nazariyasi va madaniyatshunoslik kesishmasida o‘rganilgan. Dastlabki nazariy asoslar madaniyatlarni qiyosiy tavsiflash bilan bog‘liq. E. Hall madaniyatlarni muloqotda kontekstga tayanish darajasiga ko‘ra yuqori kontekstli va past kontekstli turlarga ajratgan [4]. G. Hofstede milliy madaniyatlarni hokimiyat masofasi, individualizm va jamoaviylik, noaniqlikdan

qochish kabi o‘lchovlar bo‘yicha qiyoslagan [5]. Bu ishlar madaniy farqlarni tushuntirishga yordam beradi, lekin shaxsda kompetentlik qanday rivojlanishiga javob bermaydi.

Rivojlanish jihatini M. Bennett madaniyatlararo sezgirlik modelida tasvirlagan. Unga ko‘ra, shaxsning madaniy farqlarga munosabati etnosentrik bosqichlardan (farqni inkor etish, undan himoyalanish, farqni kichraytirish) etnorelyativ bosqichlarga (farqni qabul qilish, unga moslashish, integratsiya) o‘tib boradi [6]. Pedagog uchun bu model talabaning boshlang‘ich holatini aniqlash va keyingi bosqichga mos topshiriq tanlashda qo‘l keladi.

M. Byram madaniyatlararo kommunikativ kompetentlikni besh tarkibiy qism orqali tavsiflaydi: qiziquvchanlik va ochiqlikka asoslangan munosabat, o‘z va boshqa madaniyat haqidagi bilim, talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmasi, kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmasi, tanqidiy madaniy ong [7]. Byram talabadan boshqa madaniyatni o‘rganish bilan birga o‘z madaniyatiga ham tanqidiy nazar bilan qarashni kutadi. Ushbu talab keyinchalik refleksiv komponentning nazariy asosiga aylandi.

D. Deardorff xalqaro ekspertlar fikrini Delfi metodi bilan umumlashtirib, madaniyatlararo kompetentlikning jarayonli modelini taklif qilgan [8]. Modelda hurmat, ochiqlik va qiziquvchanlik boshlang‘ich nuqta hisoblanadi. Ular bilim va ko‘nikmalar orqali ichki natijaga (moslashuvchanlik, empatiya, etnorelyativ qarash) va tashqi natijaga, ya’ni vaziyatga mos va samarali muloqotga olib keladi. Deardorff fikricha, kompetentlik uzluksiz rivojlanadi, shuning uchun uni bir martalik test bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

B. Spitzberg va G. Changnon mavjud modellarni tahlil qilib, ularni kompozitsion, ko-orientatsion, rivojlanish, moslashuv va sababiy-jarayonli turlarga ajratgan [9]. A. Fantini xabardorlik, munosabat, ko‘nikma va bilimni kompetentlikning asosiy o‘lchovlari deb hisoblagan, til bilish darajasini esa alohida omil sifatida ko‘rgan va baholash so‘rovnomasini ishlab chiqqan [10].

Xalqaro tashkilotlar hujjatlarida ham shunga yaqin tuzilma uchraydi. Yevropa Kengashining demokratik madaniyat kompetensiyalari bo‘yicha ma’lumotnoma doirasi kompetensiyalarni qadriyatlar, munosabatlar, ko‘nikmalar hamda bilim va tanqidiy tushunish guruhlariga ajratadi [11]. YUNESKO madaniyatlararo kompetensiyalarni madaniy xilma-xillik sharoitida birga yashash va hamkorlik qilishning sharti sifatida ko‘radi [12]. J. Banks ko‘p madaniyatli ta’limning besh o‘lchovini ajratgan: mazmunni integratsiyalash, bilim qurilishi jarayoni, xurofotlarni kamaytirish, teng imkoniyatli pedagogika va ta’lim muassasasi madaniyati [13]. B. Parekh madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni ko‘p madaniyatli jamiyat barqarorligining asosi deb biladi [14].

Ushbu modellar orasida OECD konsepsiyasini asos sifatida tanlashga ikki sabab bor. Birinchidan, u madaniyatlararo muloqotni global masalalarni tahlil qilish va jamiyat farovonligi

uchun harakat bilan bir tizimda ko‘radi. Ikkinchidan, konsepsiya xalqaro baholash tajribasiga ega va uning ko‘rsatkichlari ochiq e’lon qilingan [3]. Shu bilan birga, Byram va Deardorff modellari refleksiv va jarayonli jihatlarni aniqroq ochib beradi, shuning uchun ular OECD konsepsiyasini to‘ldiruvchi manba sifatida olindi.

Mahalliy tadqiqotlarda madaniyatlararo kompetentlik ko‘pincha xorijiy tillarni o‘qitish yoki xalqaro grant loyihalari doirasida ko‘rib chiqilgan [15]. OECD global kompetentlik konsepsiyasini oliy ta’lim pedagogikasiga moslashtirish masalasi esa kam o‘rganilgan. Asosiy modellarning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda berilgan.

1-jadval. Madaniyatlararo kompetentlik modellarining qiyosiy tavsifi

Model	Asosiy tarkibiy qismlar	Oliy ta’lim uchun foydasi
M. Bennett [6]	Etnosentrik va etnorelyativ rivojlanish bosqichlari	Talabaning boshlang‘ich holatini aniqlash, bosqichma-bosqich rivojlantirish
M. Byram [7]	Munosabat, bilim, talqin va kashf etish ko‘nikmalari, tanqidiy madaniy ong	Gumanitar va til fanlarida madaniy mazmunni tanqidiy o‘rganish
D. Deardorff [8]	Munosabat → bilim va ko‘nikma → ichki va tashqi natija	Jarayonni rejalashtirish va uzluksiz baholash
Yevropa Kengashi [11]	Qadriyatlar, munosabatlar, ko‘nikmalar, bilim va tanqidiy tushunish	Kompetentlikni qadriyatli tarbiya bilan bog‘lash
OECD [2; 3]	To‘rt o‘lchov; bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyat bloklari	Madaniyatlararo muloqotni global masalalar va mas’uliyatli harakat bilan bog‘lash

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega. Uning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli va tizimli yondashuvlar tashkil etadi. Ishda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, OECD hujjatlarini [2; 3; 16] sifat kontent-tahlil qilish, madaniyatlararo kompetentlik modellarini qiyosiy tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish, pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Kontent-tahlil uch bosqichda olib borildi. Avval OECD hujjatlaridan global kompetentlikning ta’rifi, to‘rt o‘lchovi va tarkibiy bloklari ajratib olindi. Keyin ular Byram, Deardorff va Bennett modellaridagi komponentlar bilan solishtirildi. So‘ngra mos keluvchi elementlar asosida oliy ta’lim uchun komponentlar tarkibi, rivojlantirish modeli va baholash mezonlari tuzildi.

Tadqiqotning cheklovi ham bor: ish empirik tajriba-sinovni o‘z ichiga olmaydi. Taklif qilingan model va baholash mezonlari keyingi bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida sinovdan o‘tkazilishi kerak.

Tahlil va natijalar. *OECD konsepsiyasining tuzilishi.* OECD global kompetentlikni to‘rt o‘lchovda tavsiflaydi: mahalliy, global va madaniyatlararo masalalarni o‘rganish; boshqalarning nuqtayi nazari va dunyoqarashini tushunish va qadrlash; madaniyatlar o‘rtasida ochiq, o‘rinli va samarali muloqot qilish; umumiy farovonlik va barqaror rivojlanish uchun harakat qilish [2]. Har bir o‘lchov to‘rt blokka tayanadi. Bilim bloki global masalalar va madaniyatlararo munosabatlar haqidagi bilimni qamraydi. Ko‘nikmalar qatoriga axborot asosida mulohaza yuritish, madaniyatlararo muloqot, boshqa odamning nuqtayi nazariga o‘tib qarash, nizolarni hal qilish va moslashuvchanlik kiradi. Munosabatlar bloki boshqa madaniyat vakillariga ochiqlik, madaniy o‘zgachalikka hurmat, global fikrlash va mas’uliyatni o‘z ichiga oladi. Qadriyatlar blokida inson qadr-qimmati va madaniy xilma-xillikni qadrlash ko‘rsatilgan [2; 3].

Bloklarni umumlashtirib, konsepsiyada uch jihatni ajratish mumkin: kognitiv jihat (bilim va tahlil), ijtimoiy-emotsional jihat (munosabat va qadriyat) hamda xulq-atvor jihati (muloqot va harakat). Bu jihatlar madaniyatlararo kompetentlik komponentlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri mos keladi. Mosliklar 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval. Madaniyatlararo kompetentlikning tarkibiy qismlari va ularning OECD konsepsiyasidagi asosi

Komponent	Mazmuni	OECD konsepsiyasidagi asosi	Talabada namoyon bo‘lishi
Kognitiv	Madaniyatlar, qadriyatlar va global jarayonlar haqidagi bilim	Bilim bloki; 1-o‘lchov	Madaniy hodisa va global masalalarni dalil asosida tahlil qiladi
Affektiv-qadriyatli	Hurmat, ochiqlik, empatiya, bag‘rikenglik	Munosabatlar va qadriyatlar bloklari; 2-o‘lchov	Madaniy farqlarga xolis va hurmat bilan munosabatda bo‘ladi
Kommunikativ	Madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari	Ko‘nikmalar bloki; 3-o‘lchov	Suhbatdoshning madaniy kontekstini hisobga olib muloqot qiladi
Xulq-atvor	Bilim va qadriyatlarni amalda qo‘llash	4-o‘lchov	Jamoaviy loyihalarda mas’uliyatli va moslashuvchan harakat qiladi
Refleksiv	O‘z madaniy qarashlarini anglash va baholash	2-o‘lchov; Byram va Deardorff modellari [7; 8]	O‘z stereotiplarini aniqlaydi va qayta baholaydi

Refleksiv komponent OECD konsepsiyasida alohida blok sifatida berilmagan. U talabaning o‘z qarashlarini tahlil qilish qobiliyatiga tayanadi va Byramning tanqidiy madaniy ong tushunchasi hamda Deardorff modelidagi ichki natija bilan asoslanadi [7; 8]. Talaba 15 yoshli

o‘quvchiga qaraganda o‘z tajribasini ongliroq tahlil qila oladi, shu sababli oliy ta’limda bu komponentni alohida rivojlantirish va baholash maqsadga muvofiq.

Pedagogik imkoniyatlar. Madaniyatlararo kompetentlik faoliyat, muloqot, tajriba va refleksiya jarayonida shakllanadi. Ma’ruza orqali berilgan nazariy bilim bu jarayonning bir qismi xolos. Tahlil asosida oliy ta’limda beshta pedagogik imkoniyat ajratildi.

Birinchisi – madaniyatlararo mazmunni o‘quv fanlariga kiritish. Pedagogika, psixologiya, xorijiy til, tarix va ijtimoiy fanlarda turli xalqlarning urf-odati, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasiga oid autentik matn, hujjat va keyslardan foydalanish talabaning kognitiv komponentini kengaytiradi. Banks ta’kidlaganidek, mazmunni qo‘shishning o‘zi yetarli emas: talaba bilim qanday shakllanganini ham tahlil qilishi kerak [13].

Ikkinchisi – dialogik ta’lim muhitini yaratish. Talaba turli fikrlarni erkin bildira oladigan, o‘z qarashini dalil bilan asoslaydigan va boshqa fikrni tinglay oladigan seminarlar madaniyatlararo muloqot ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bunday muhitda o‘qituvchi bahsni boshqaradi, lekin to‘g‘ri javobni oldindan belgilab qo‘ymaydi.

Uchinchisi – interfaol pedagogik texnologiyalar. Keys-stadi, rolli o‘yin, debat, loyiha, muammoli vaziyat, “aqliy hujum” va madaniyatlararo simulyatsiya talabani madaniy jihatdan murakkab vaziyatga qo‘yadi. Masalan, xalqaro konferensiyada xorijiy hamkasb bilan kelishmovchilik yuzaga kelgan vaziyatni rollarga bo‘lib o‘ynash va keyin uni guruhda tahlil qilish kommunikativ va refleksiv komponentlarni birga rivojlantiradi.

To‘rtinchisi – xalqaro va raqamli ta’lim muhiti. Virtual almashinuv, hamkor universitetlar bilan onlayn loyihalar va xorijiy talabalar bilan masofaviy hamkorlik talabaga haqiqiy madaniyatlararo muloqot tajribasini beradi. Akademik mobillikda ishtirok etish imkoniyati cheklangan talabalar uchun bu yo‘l ayniqsa qulay.

Beshinchisi – bag‘rikenglik va empatiyani rivojlantirish. Bunda stereotiplarni aniqlash, madaniy farqlarni muhokama qilish va vaziyatni boshqa odam nuqtayi nazaridan baholashga qaratilgan topshiriqlardan foydalaniladi [11; 12]. Bunday topshiriqlar talabaning milliy qadriyatlarini zaiflashtirmaydi. Aksincha, o‘z madaniyatini yaxshi anglagan talaba boshqa madaniyat bilan muloqotda o‘zini ishonchliroq his qiladi.

Rivojlantirish modeli. Yuqoridagi tahlil asosida OECD konsepsiyasiga tayangan sakkiz bosqichli model ishlab chiqildi (3-jadval). Model ijtimoiy buyurtmadan boshlanib, natija bilan yakunlanadi. Har bir bosqichdan keyin olingan ma’lumot tahlil qilinadi va oldingi bosqichlarga tuzatish kiritiladi.

3-jadval. OECD konsepsiyasi asosida madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish modeli

Bosqich	Mazmuni	Asosiy vositalar
1. Ijtimoiy buyurtma	Madaniy jihatdan xilma-xil muhitda ishlay oladigan mutaxassisga bo‘lgan ehtiyoj	Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi [1], ish beruvchilar talablari
2. Maqsad	OECD to‘rt o‘lchovi asosida madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish	Fan dasturlarida aniq o‘quv natijalarini belgilash
3. Mazmun	Madaniyatlararo muloqot, global masalalar, turli nuqtayi nazarlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar	Fanlararo mavzular, keyslar, autentik matnlar
4. Pedagogik shart-sharoitlar	Ochiq va psixologik xavfsiz muhit, motivatsiya, axborot-resurs ta’minoti	Auditoriya va raqamli muhitni tashkil etish
5. Metodlar	Keys-stadi, loyiha, muammoli ta’lim, debat, rolli o‘yin	Interfaol texnologiyalar
6. Faoliyat	Talabalarning individual, juftlik va guruhli ishi	Amaliy topshiriqlar, muhokama, virtual almashinuv
7. Monitoring	Bilim, munosabat, muloqot va xulq-atvordagi o‘zgarishlarni kuzatish	Diagnostika, kuzatuv, so‘rovnoma, test, refleksiv kundalik, portfolio
8. Natija	Madaniyatlararo kompetentligi rivojlangan, mas’uliyatli va moslashuvchan bitiruvchi	Yakuniy baholash, modelni takomillashtirish

Ijtimoiy buyurtma bosqichida madaniy jihatdan xilma-xil muhitda faoliyat yurita oladigan mutaxassisga bo‘lgan ehtiyoj aniqlanadi. Maqsad bosqichida bu ehtiyoj fan dasturlaridagi o‘lchanadigan o‘quv natijalariga aylantiriladi. Mazmun bosqichida global masalalar, madaniy xilma-xillik, inson huquqlari, madaniyatlararo muloqot va qadriyatlar tizimiga oid mavzular fanlar mazmuniga kiritiladi. Metod va faoliyat bosqichlarida talaba bu mazmun bilan amaliy vaziyatlarda ishlaydi. Monitoring bosqichida faqat bilim emas, munosabat, muloqot ko‘nikmasi va xulq-atvordagi o‘zgarishlar ham baholanadi.

Modelni qo‘llashga misol. Model pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun to‘rt haftalik modul ko‘rinishida qo‘llanishi mumkin. Birinchi haftada talabalar Bennett modeli asosidagi diagnostik so‘rovnomani to‘ldiradi va o‘z madaniy tajribasi haqida qisqa esse yozadi. Ikkinchi haftada OECD konsepsiyasining birinchi va ikkinchi o‘lchovlari asosida global masala (masalan, ta’limdan teng foydalanish imkoniyati) bo‘yicha turli mamlakatlar tajribasini qiyoslaydigan keys tahlil qilinadi. Uchinchi haftada xalqaro hamkor universitet talabalari bilan onlayn muhokama yoki ular bo‘lmagan holda madaniyatlararo simulyatsiya o‘tkaziladi. To‘rtinchi haftada guruhlar kichik loyiha taqdim etadi, har bir talaba refleksiv kundalik asosida o‘z qarashlaridagi o‘zgarishlarni

tahlil qiladi. Modul yakunida diagnostik so‘rovnoma takroran o‘tkaziladi va natijalar boshlang‘ich holat bilan solishtiriladi.

Pedagogik shart-sharoitlar. Model samarali ishlashi uchun quyidagi shart-sharoitlar zarur. Birinchidan, oliy ta’lim muassasasida madaniy jihatdan ochiq va psixologik xavfsiz ta’lim muhiti yaratilishi kerak. Ikkinchidan, o‘quv fanlari mazmuniga global va madaniyatlararo komponentlar tizimli ravishda kiritilishi lozim. Uchinchidan, talabalarning real va virtual madaniyatlararo muloqot tajribasi kengaytirilishi kerak. To‘rtinchidan, stereotiplar va madaniy noto‘g‘ri tasavvurlarni tanqidiy tahlil qilishga qaratilgan pedagogik vaziyatlardan foydalanish zarur. Beshinchidan, hurmat, empatiya va ochiqlik ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida tarbiyalanishi kerak. Oltinchidan, baholashda bilim bilan birga kommunikativ, affektiv va xulq-atvor ko‘rsatkichlari ham hisobga olinishi lozim.

Baholash mezonlari. Deardorff baholash bir necha vosita yordamida va uzoq muddat davomida olib borilishi kerakligini ta’kidlaydi [8]. PISA 2018 tadqiqotida ham kognitiv test o‘quvchilar so‘rovnomasi bilan birga qo‘llangan [3; 16]. Shu tajribaga tayanib, har bir komponent uchun mezon, ko‘rsatkich va vosita belgilandi (4-jadval).

4-jadval. Madaniyatlararo kompetentlikni baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va vositalari

Mezon	Ko‘rsatkichlar	Baholash vositalari
Kognitiv	Madaniy va global masalalarni dalil asosida tahlil qilish	Keys bo‘yicha yozma tahlil, test
Affektiv-qadriyatli	Boshqa madaniyat vakillariga ochiqlik, hurmat, empatiya	O‘z-o‘zini baholash so‘rovnomasi, kuzatuv
Kommunikativ	Muloqotda vaziyatga mos va samarali xulq	Rolli o‘yin, simulyatsiya, ekspert kuzatuvi
Xulq-atvor	Jamoaviy loyihada mas’uliyat va moslashuvchanlik	Loyiha portfeli, guruhdoshlar bahosi
Refleksiv	O‘z qarashlari va stereotiplarini anglash	Refleksiv kundalik, esse

Natijalarni uch daraja bo‘yicha talqin qilish mumkin. Past darajadagi talaba madaniy farqlarni sezmaydi yoki ularni salbiy baholaydi; bu Bennett modelidagi etnosentrik bosqichlarga to‘g‘ri keladi [6]. O‘rta darajadagi talaba farqlarni tan oladi, lekin muloqotda ularni doim hisobga ola olmaydi. Yuqori darajadagi talaba farqlarni qabul qiladi, xulqini vaziyatga moslashtiradi va o‘z qarashlarini tanqidiy tahlil qila oladi.

Muhokama. Natijalar OECD konsepsiyasi va madaniyatlararo kompetentlik nazariyalari o‘rtasida mazmuniy moslik borligini ko‘rsatdi. Global muammolarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish kognitiv komponentga, boshqa madaniyat va qarashlarga hurmat affektiv-qadriyatli komponentga, samarali muloqot kommunikativ komponentga, mas’uliyatli harakat esa xulq-atvor

komponentiga tayanadi. Shu bilan birga, ikki yondashuv orasida farq ham bor. Byram modeli asosan til va madaniyat o‘rtasidagi aloqaga e’tibor qaratadi [7]. OECD konsepsiyasi esa kompetentlikni global masalalar va jamiyat farovonligi uchun harakat bilan bog‘laydi [2]. Oliy ta’lim uchun ikkala yondashuvni birlashtirish foydali: talaba madaniy farqni tushunishi va shu tushunchani kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi kerak.

Madaniyatlararo kompetentlikni xorijiy til bilish yoki boshqa mamlakatlar haqida ma’lumotga ega bo‘lish bilan tenglashtirish metodologik jihatdan noto‘g‘ri. Fantini til bilishni muhim, ammo alohida omil deb hisoblaydi [10]. Xorijiy tilni yaxshi bilgan talaba ham suhbatdoshining madaniy kontekstini tushunmasa, muloqotda qiynalishi mumkin. Shuning uchun kompetentlikni rivojlantirish bitta fan doirasida hal bo‘ladigan vazifa emas. U ta’lim mazmuni, metodlari, muloqot muhiti va baholash tizimini qamrab oladi.

OECD konsepsiyasini oliy ta’limga moslashtirishda yana bir jihatni hisobga olish kerak. PISA 2018 natijalari bo‘yicha hisobotda o‘quvchilarning global kompetentligi bilan birga ularning maktabda va maktabdan tashqarida olgan global va madaniyatlararo ta’lim tajribasi ham tahlil qilingan [16]. Demak, natija o‘quvchining shaxsiy sifatlariga emas, ta’lim muassasasi taqdim etgan imkoniyatlarga ham bog‘liq. Oliy ta’lim uchun bundan amaliy xulosa chiqadi: universitet madaniyatlararo muloqot uchun maxsus vaziyatlar yaratmasa, talabaning bu sohadagi rivoji tasodifiy bo‘lib qoladi.

Madaniyatlararo kompetentlik va milliy o‘zlikni anglash bir-birini to‘ldiradi. Byram modelida o‘z madaniyatini tanqidiy anglash boshqa madaniyatni tushunishning sharti sifatida ko‘riladi [7], Yevropa Kengashi doirasida ham madaniy xilma-xillikni qadrlash inson qadr-qimmatini hurmat qilish bilan birga beriladi [11]. O‘zbek ta’lim an’anasidagi mehmondo‘stlik va o‘zgalar fikrini hurmat qilish kabi qadriyatlar madaniyatlararo muloqot uchun tayyor tayanch bo‘la oladi. Shu sababli madaniyatlararo mazmunni milliy qadriyatlar bilan qiyoslab o‘rgatish talabaning o‘z madaniyatiga bo‘lgan munosabatini ham chuqurlashtiradi.

Modelni amalga oshirishda o‘qituvchining roli hal qiluvchi. Agar professor-o‘qituvchi madaniy farqlarni muhokama qilish, nizoli vaziyatni boshqarish va refleksiv topshiriqlarni baholash tajribasiga ega bo‘lmasa, interfaol metodlar rasmiy tadbirga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun model faqat talabalar uchun emas, o‘qituvchilar uchun ham tayyorgarlik bosqichini nazarda tutadi. Bu masala malaka oshirish dasturlari orqali hal qilinishi mumkin.

Raqamli texnologiyalar bu vazifani hal qilishni osonlashtiradi. Talabalar turli mamlakatlardagi tengdoshlari bilan virtual loyihalarda ishtirok etishi, xalqaro ta’lim platformalaridan foydalanishi va boshqa madaniy muhit haqida birlamchi manbalardan ma’lumot olishi mumkin. Bunday faoliyat nazariy bilimni real muloqot tajribasi bilan birlashtiradi. Biroq

raqamli muloqot ham o‘qituvchi tomonidan tashkil etilishi va refleksiya bilan yakunlanishi kerak, aks holda u yuzaki tanishuv darajasida qoladi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Madaniyatlararo kompetentlik globallashuv sharoitida talabaning ijtimoiy va kasbiy faoliyatini ta’minlaydigan kompetensiyalardan biri. OECD global kompetentlik konsepsiyasi uni rivojlantirish uchun xalqaro miqyosda tan olingan nazariy-metodologik asos bo‘la oladi.

2. OECD konsepsiyasining to‘rt o‘lchovi va bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyat bloklari madaniyatlararo kompetentlikning kognitiv, affektiv-qadriyatli, kommunikativ va xulq-atvor komponentlariga mos keladi. Oliy ta’lim uchun bu tarkibga refleksiv komponentni qo‘shish asosli.

3. Oliy ta’limda madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirishning asosiy pedagogik imkoniyatlari – madaniyatlararo mazmunni fanlarga kiritish, dialogik muhit yaratish, interfaol texnologiyalar, xalqaro va raqamli hamkorlik, bag‘rikenglik va empatiyani tarbiyalash.

4. Taklif qilingan sakkiz bosqichli model ijtimoiy buyurtmadan natijagacha bo‘lgan jarayonni tizimga soladi. Baholashda har bir komponent uchun alohida mezon va vosita qo‘llanishi kerak.

Amaliy tavsiyalar quyidagilardan iborat: pedagogika va gumanitar yo‘nalishlarda “Madaniyatlararo muloqot va global kompetentlik” tanlov fanini joriy etish; mavjud fanlar dasturlariga madaniyatlararo keys va loyiha topshiriqlarini kiritish; hamkor xorijiy universitetlar bilan virtual almashinuv loyihalarini tashkil etish; professor-o‘qituvchilar uchun madaniyatlararo pedagogika bo‘yicha malaka oshirish modulini ishlab chiqish; talabalar kompetentligini portfolio asosida baholash. Tadqiqotning keyingi bosqichida taklif etilgan model va baholash mezonlari pedagogik tajribada sinovdan o‘tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/4545884

2. OECD. Preparing Our Youth for an Inclusive and Sustainable World: The OECD PISA Global Competence Framework. – Paris: OECD Publishing, 2018.

3. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019. – DOI: 10.1787/b25efab8-en.

4. Hall E.T. Beyond Culture. – New York: Anchor Books, 1976.

5. Hofstede G. Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations across Nations. – 2nd ed. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2001.

6. Bennett M.J. Towards Ethnorelativism: A Developmental Model of Intercultural Sensitivity // Education for the Intercultural Experience / ed. R.M. Paige. – Yarmouth: Intercultural Press, 1993. – P. 21–71.

7. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 p.

8. Deardorff D.K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, № 3. – P. 241–266. – DOI: 10.1177/1028315306287002.

9. Spitzberg B.H., Changnon G. Conceptualizing Intercultural Competence // The SAGE Handbook of Intercultural Competence / ed. D.K. Deardorff. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2009. – P. 2–52.

10. Fantini A., Tirmizi A. Exploring and Assessing Intercultural Competence. – Brattleboro: World Learning Publications, 2006. – URL: https://digitalcollections.sit.edu/worldlearning_publications/1

11. Council of Europe. Reference Framework of Competences for Democratic Culture. Vol. 1: Context, Concepts and Model. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2018.

12. UNESCO. Intercultural Competences: Conceptual and Operational Framework. – Paris: UNESCO, 2013.

13. Banks J.A. An Introduction to Multicultural Education. – 6th ed. – Boston: Pearson, 2019.

14. Parekh B. Rethinking Multiculturalism: Cultural Diversity and Political Theory. – 2nd ed. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2006.

15. Shodiyeva Sh.F. Xalqaro grant loyihalarining oliy ta’limni rivojlantirishdagi ahamiyati va talaba-yoshlarda madaniyatlararo kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari // Farg‘ona metodika maktabi. – 2026. – № 2. – DOI: 10.5281/zenodo.22038384.

16. OECD. PISA 2018 Results (Volume VI): Are Students Ready to Thrive in an Interconnected World? – Paris: OECD Publishing, 2020. – DOI: 10.1787/d5f68679-en.